

## FRANSUZ VA O'ZBEK KOMPYUTER TERMINOLOGIYASINING QO'SHMA SO'ZLARI XUSUSIYATTLARI

*Mohichexra Xikmatullayeva Latifjon qizi*

*Samarqand davlat chet tillari instituti 2-kurs magistranti*

[pardayevb14@gmail.com](mailto:pardayevb14@gmail.com)

**ABSTRACT** This article examines the lexical-grammatical features of compound words contained in the structure of computer terms using the example of two languages, .Uzbek and French.

Hozirgi vaqtda kompyuterlashtirish jarayoni dunyo mamlakatlarida turli darajada kechmoqda. Taraqqiyot qay darajada bo'lmasin, insoniyat jamiyatda axborot texnologiyalarining o'rni beqiyosligini tushunib yetdi. Inson faoliyatining barcha sohalarini kompyuterlashtirish bugungi kunda jamiyatning muhim vazifasi va ijtimoiy taraqqiyot omilidir. Jamiyatni kompyuterlashtirmasdan turib, ijtimoiy o'zgarishlarni amalga oshirish, munosib turmush darajasini ta'minlash qiyin. Informatika sohasi ana shu ehtiyoj natijasida vujudga keldi. Va buning natijasida ko'plab terminlar o'zbek leksikasiga kirib kela boshladi. Buning natijasida esa kompyuter terminologiyasi degan tushuncha paydo bo'la boshladi. O'zbek terminologiyasi ilmiy-texnikaviy inqilob davri deb atalgan XX asrda ancha boyidi, bunday boyishga sabab intralingvistika va ekstralingvistika omillar ta'sirida yuzaga kela boshladi. Hozirgi kunda terminologiya zamonaviy tilshunoslikning actual tadqiqot yo'nalishlaridan biri hisoblanadi. Buning sababi esa ilm-fanning dinamik rivojlanishi sababli yangi tushunchalarning ko'plab yuzaga kelishi bo'lsa, ikkinchi tomondan, terminlarning shakllanish jarayoni, rivojlanishi va funksiyasining yetarli darajada o'rganilmaganligi hisoblanadi. So'z ifodasi lingvistik termin deb hisoblanishi mumkin deb yozgan edi Z.Xarris va

I.F.Frizyslar. Ular deskriptiv lingvistika tarafdorlaridan bo'lib, so'z ifodasini quyidagicha ta'riflaydilar: "So'z ifodasi insonning har qanday nutqi bo'lib, u sukutdan oldin yoki keyin ifoda etilishi mumkin". Fanning har bir bo'limi yoki maktabi o'z tabiati va metodlariga moslab maxsus terminologiyani rivojlantiradi. Bunday maxsus terminologiya ilmiy izlanishning muhim qismi bo'lib, o'ta muhim ahamiyatga ega. Chunki u rivojlanishga katta hissa qo'shadi<sup>1</sup>. Ana shunday maxsus terminologiyaning bir turi kompyuter terminologiyasi deb ataladi. Bizning tahlil obektimiz esa kompyuter terminologiyasi tarkibidagi qo'shma so'zlar hisoblanadi. Fransuz va o'zbek tili kompyuter terminlari tarkibida qo'shma so'zlar ham ko'pchilikni tashkil qiladi. So'zlarni bir-biriga qo'shish orqali hosil bo'ladigan qo'shma so'zlar, ya'ni *chou-fleur*; *café crème*; *portemanteau*; *pomme de terre*; *arc-en-ciel* kabilar ham matnni leksik tahlil qilishda juda muhim ahamiyatga ega. Fransuz tilida qo'shma so'zlar o'z tarkibidagi so'zlarning grammatik kategoriyalariga ko'ra ikkiga bo'linadi: fe'l asosida yasalgan qo'shma so'zlar (*les mots composé à la base verbale*) va ot asosida yasalgan qo'shma so'zlar (*les mots composé à la base nominale*)<sup>2</sup>. Qo'shma so'zlar haqida ma'lumotga ega bo'ldik endi esa ularning tahlilini boshlaymiz. Kompyuter terminlarida ham shunday qo'shma so'zlar mavjud:

Fransuz tilida; *contrôleur de mémoire*, *disque dur hybride*, *contrôleur d'entrée-sortie*, *processeur multicœur*, *processeur vectoriel*, *apportez votre équipement personnel de communication*, *article de forum*, *cheval de Troie*, *code à octets*, *élément binaire*, *glisser-déposer*, *fonction modem*, *logiciel antivirus*

o'zbek tilida; *alfa-testlash*, *yalang-integral sxema*, *veb-hujjat*, *electron pochta*, *electron mo'yqalam*, *analog kompyuter*, *sun'iy tafakkur*, *sun'iy til*, *zaxira nusxa*, *shtrixli kod*, *kompyuter tarmog'i*, *qattiq disk*

---

<sup>1</sup> TERMINOLOGIYA MASALALARI BO'YICHA ILMIY ADABIYOTLAR TAHLILI Janona Javlieva "Science and Education" Scientific Journal Volume , 1 Issue 2, 451-452-betlar

<sup>2</sup> Suvonova N. Matn tahlili. O'quv-uslubiy qo'llanma. –Samarqand, SamDCHTI nashri, 2010. - 47 bet

Yuqorida keltirilgan qo'shma so'zlar ichida predloglar yordamida yasaladigan so'zlar ham mavjud bo'lib, ular leksikologiya fanida sinapsi (*la synapsie*) deb ataladi. Masalan, *pomme de terre, chemin de fer, bateau à voile, tasse à thé* kabilar. Fransuz tilida sinapsilar faqat *à* va *de* predloglari bilan yasaladi<sup>3</sup>. Misol uchun ; *à* predlogi orqali yasalgan sinapsilar:

*aide au dépannage,*  
*accès sans fil à l'internet,*  
*code à octets,*  
*écran à double affichage*

De predlogi orqali yasalgan sinapsilar:

*gestionnaire de communauté,*  
*bande de frequencies,*  
*article de forum,*  
*cheval de Troie,*  
*contrôleur de mémoire,*  
*ligne d'accès,*  
*flux de travaux*  
voie de transmission

Kompyuter terminlarini leksik tahlili jarayonida amin bo'lindiki, terminlarning ko'pchiligi maxsus atamalarga (*les termes spécialisés*) ga mansubdir. Chunki atamalarning ko'pchiligi faqatgina AKT doirasidagina qo'llanila oladi. Masalan ;

O'zbek tilida : *ish stoli, veb–sayt, interfeys, agent, analog, analog kompyuter, tahlilchi, arxiv, arxivator, sun'iy tafakkur, sun'iy til, zaxira nusxa, shtrixli kod, kompyuter tarmog'i, dastur, protsestr, qattiq disk, kilobayt portative kompyuter, megobayt, ona plata, ishga tushirish sistemasi,*

---

<sup>3</sup> Suvonova N. Matn tahlili. O'quv-uslubiy qo'llanma. –Samarqand, SamDCHTI nashri, 2010. - 47 bet

*fransuz tilida ;apportez votre équipement personnel de communication, article de forum, - bloc-notes électronique, cache-disque, cache-toile, cheval de Troie, code à octets, conception assistée par ordinateur appliquée à l'électronique, - disque compact, disque numérique polyvalent, élément binaire, enregistreur de frappe, fenêtre d'attente, fenêtre intrusive, glisser-déposer* bularning barchasi qo'llanilish doirasi chegaralangan so'zlar hisoblanadi chunki ularni oddiy lug'at tarkibidan topa olmaysiz.

Qo'llanilish doirasi chegaralanmagan so'zlar deganda har qanday sohada ham qo'llash mumkin bo'lgan so'zlardir. Bunday so'zlarni oddiy lug'at tarkibida ham uchratishingiz mumkin. Kompyuter lingvistikasida qo'llanilish doirasi chegralanmaga so'zlar mavjud. Bularga: o'zbek tilida; *ekran, konferensiya, xotira, ma'lumot, tarmoq, fransuz tilida; éditeur, cache,* kabi so'zlarni misol qilib olishimiz mumkin. Kompyuterning vatani Angliya bo'lganligi sababli, kompyuter atamalari ingliz tilida yuzaga kelgan. Bundan har bir davlat har xil shaklda uni qabul qilgan, kimdir so'zma-so'z hech qanday tarjimasiz, kimdir esa termini tarjima qilib o'z tillariga tarjima qilgan. Shu tufayli ularni quyidagica tahlil qilishimiz mumkin.

O'zbek va fransuz tilida ekvivalenti yo'q qo'shma so'zlar : anti spam , Microsoft Office, PowerPoint, Microsoft Word, etc.

Fransuz tilida ekvivalenti bor so'zlar : CD (cédérom), DVD (disque numérique polyvalent), desktop (ordinateur de bureau), firewall (barrière de sécurité), firewire (garde-barrière), firmware (pare-feu), joystick (manette de jeu, manche à balai, poignée), MP3 (baladeur numérique), Net (mot familier pour désigner le réseau Internet), Notebook (ordinateur portable) etc.

D.S.Lotte qanday kategoriyadagi so'zlar terminlashishi mumkinligi haqida gapirib: "texnikada quyidagi tushunchalarni anglatuvchi asosiy kategoriyalar terminlashadi: jarayonlar (hodisalar); texnika predmetlari (materiallar, qurollar, asboblari, detallar va h.k.); xossalar; hisobiy tushunchalar (parametrlar, geometrik

obrazlar va h.k.); o‘lchov birliklari”<sup>4</sup>. Demak kompyuter lug‘atlarini ham shunday tahlil qilishimiz mumkin.

Jarayonlar (hodisalar): o‘zbek tilida; muhandislik mehnatini kompyuterlashtirish, avtozagruska, qayta yuklash, parol qo‘yish va h.k

Fransuz tilida; *accès sans fil à l’internet, aide au dépannage, appariement de forme, vérification/ contrôle orthographique,*

texnika predmetlari: o‘zbek tilida; kompyuter, printer, sistema bloke, klaviatura, modm, disk, flash kard,

fransuz tilida; mémoire cache, ordinateur portable,

xossalar: o‘zbek tilida; qiya bosma harf

fransuz tilida; *circuit à configurations multiples, circuit intégré sur mesure,*

o‘lchov birliklari: o‘zbek tilida; *megabayt, megapiksill.*

Fransuz tilida; *element binaire.*

Xulosa.

Kompyuter terminologiyasini tahlil qilish chog‘ida amin bo‘ldikki, uning leksik xususiyatidan tashqari boshqa xususiyatlari bo‘yicha ya’ni keng doirada ham tahlil qilishimiz mumkin. Tahlil jarayonida ikki tilning bir-biridan farqli va bir-biriga o‘zshash jihatlarini bilib oldik masalan, sinapsilar degan tushuncha bo‘yich tadqiq qilinganda, fransuz tili terminlari mavjud o‘zbek tilida esa bunday terminlar mavjud emas. Chunki sinapsilar predlog asosida yuzaga keladi o‘zbek tilida esa predloglar mavjud emas. Yana bir farqli jihati shundaki, fransuz tilida ekvivalenti bor so‘zlarning o‘zbek tilida ekvivalenti yo‘q. masalan MP3 so‘zini biz o‘zbek tilida ham MP3 deb ishlatamiz lekin fransuz tilida esa baladeur numérique shaklda o‘zlariga moslashtirilgan shakli mavjud. Qo‘llanilish doirasi chegaralangan va qo‘llanilish doirasi chegaralanmagan, so‘zlar ikki tilda ham mavjud. Ikki tilde ham ekvivalenti yo‘q so‘zlar ikki til uchun ham bir-xil shaklda qabul qilingan. Texnikada tushunchalarni anglatuvchi asosiy kategoriyalar

---

<sup>4</sup> Лотте Д.С. Основы построения научнотехнической терминологии. Вопросы теории и методики. М., 1961. – с. 29

terminlashganda jarayonlar, xossalari, texnika parametrlari va o'lchov birliklari uchun ham ikki til misolida qo'shma so'zlarni topishimiz mumkin. Bu aqtgina leksik tahlilimiz natijasidagi xulosalardir, bu tadqiqotni boshqa xususiyatlar tahlilini ochib berish orqali yanada boyitish mumkin.

### **Foydalanilgan adabiyotlar:**

1. TERMINOLOGIYA MASALALARI BO'YICHA ILMIY ADABIYOTLAR TAHLILI Janona Javlieva "Science and Education" Scientific Journal Volume , 1 Issue 2, 451-452-betlar.

2. Suvonova N. Matn tahlili. O'quv-uslubiy qo'llanma. –Samarqand, SamDCHTI nashri, 2010. - 47 bet.

3. Лотте Д.С. Основы построения науднотехнической терминологии. Вопросы теории и методики. М., 1961. – с. 29

4. Dictionnaire de l'informatique et de l'internet. <http://www.dicofr.com/cgi-bin/n.pl/dicofr/definition/>.

7. Grand Larousse de la langue française. 1971–1978. 7 vols. Paris : Librairie Larousse.

8. Vocabulaire des techniques de l'information et de la communication (TIC) Termes, expressions et définitions publiés au Journal officiel Premier ministre Commission d'enrichissement de la langue française 2017.

9. Venera, K., & Firdovuskhon, Y. (2021). Technology of Formation of Skills of Folk Crafts and Home Work at Technology Lessons. *JournalNX*, 7(03), 227-230.